



XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TRANSCHEGARAVIY GIDRORESURLARDAN BARQAROR FOYDALANISHNING
SIYOSIY-HUQUQIY MEKANIZMLARI VA ULARNING FALSAFIY-MA'NAVIY ASOSLARI



2-IYUN
2026-YIL



Qo'qon shahri,
Qo'qon davlat universiteti



Xalqaro
miqyosda



SHARQ XALQLARI QADRIYATLARIDA EKOLOGIK MA'NAVIYAT VA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH UYG'UNLIGI

Boytemirova Z.D.

Qo'qon davlat universiteti, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Asraqulova M.A.

Qo'qon davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharq xalqlari madaniyati va qadriyatlarida ekologik ma'naviyat hamda tabiatga bo'lgan hurmat munosabatlarining tarixiy ildizlari tahlil qilingan. Bugungi kunda global ekologik muammolarni hal etishda xotin-qizlarning roli, xususan, "yashil iqtisodiyot" sharoitida ayollar tadbirkorligini rivojlantirish istiqbollari yoritilgan. Ekologik etika va tadbirkorlik faoliyatining o'zaro uyg'unligi barqaror rivojlanish omili sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ma'naviyat, Sharq qadriyatlari, ayollar tadbirkorligi, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik etika.

Аннотация. В данной статье анализируются исторические корни экологической духовности и уважительного отношения к природе в культуре и ценностях народов Востока. Освещена роль женщин в решении современных глобальных экологических проблем, в частности, перспективы развития женского предпринимательства в условиях «зеленой экономики». Взаимосвязь экологической этики и предпринимательской деятельности обоснована как фактор устойчивого развития.

Ключевые слова: экологическая духовность, восточные ценности, женское предпринимательство, зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая этика.

Abstract. This article analyzes the historical roots of ecological spirituality and respectful attitude towards nature in the culture and values of the peoples of the East. The role of women in solving modern global environmental problems, in particular, the prospects for the development of women's entrepreneurship in the conditions of the "green economy" is highlighted. The harmony of environmental ethics and entrepreneurial activity is justified as a factor of sustainable development. **Key words:** ecological spirituality, Eastern values, women entrepreneurship, green economy, sustainable development, environmental ethics.

Kirish.

Bugungi kunda transchegaraviy gidroresurlardan barqaror foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash global va mintaqaviy miqyosdagi eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarining cheklanganligi va iqlim o'zgarishi sharoitida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami, ayniqsa qishloq joylarida istiqomat qiluvchi xotin-qizlarning bandligini ta'minlash yangicha yondashuvlarni talab etadi. Sharq xalqlari muloqot va turmush

tarzida tabiatga, xususan, suvga bo'lgan hurmat hamisha yuqori ma'naviy qadriyat hisoblangan [1]. Yana shuni aytish mumkinki, transchegaraviy ekologik muammolar va gidroresurlardan barqaror foydalanish masalalari nafaqat texnik yoki huquqiy, balki chuqur falsafiy-ma'naviy yondashuvni ham talab etmoqda. Sharq xalqlarining ko'p asrlik qadriyatlarida tabiatga, xususan, suvga bo'lgan munosabat muqaddas sanalgan. Tabiatni asrash va resurlardan tejamkorlik bilan foydalanish madaniyati oila poydevori hisoblangan ayollar orqali avlod-dan-avlodga o'tib kelgan [2]. Zamonaviy dunyoda ekologik inqirozlarning oldini olishda ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish hamda ular tomonidan ekologik toza, "yashil" tadbirkorlik loyihalarini yo'lga qo'yish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, ekologik inqirozlarning salbiy oqibatlarini yumshatishda xotin-qizlarning bandligi va tadbirkorligini milliy-ma'naviy qadriyatlar va huquqiy kafolatlar asosida rivojlantirish muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

Maqsad. Ushbu tadqiqotning bosh maqsadi — Sharq xalqlari ko'p asrlik an'analari va qadriyatlarida mujassamlashgan ekologik ma'naviyat hamda tabiatga bo'lgan hurmat tamoyillarini zamonaviy xotin-qizlar tadbirkorligi mexanizmlari bilan tizimli ravishda uyg'unlashtirish omillarini ochib berishdir.

Shu bilan birga, tadqiqot doirasida Orolbo'yi va respublikamizning boshqa ekologik inqiroz hamda suv resurslari taqchilligi keskinlashgan hududlarida xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni "yashil" va barqaror tadbirkorlik subyektlariga keng jalb etish orqali bandligini ta'minlashning konseptual asoslarini ishlab chiqish nazarda tutilgan [3].

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi aniq vazifalarni hal etish belgilangan:

- Sharqona falsafiy qarashlar hamda milliy qadriyatlardagi ekologik etika va tejamkorlik (isrofga yo'l qo'ymaslik) madaniyatining xotin-qizlar ijtimoiy missiyasi bilan bog'liqligini ilmiy jihatdan asoslash;
- Global miqyosda ekologik muammolar va transchegaraviy gidroresurlardan foydalanish inqirozi sharoitida ayollar bandligini ta'minlashning mavjud xalqaro va milliy huquqiy-me'yoriy bazasini tahlil qilish;
- Innovatsion hamda ekologik yo'naltirilgan ayollar tadbirkorligini huquqiy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan amaliy, ilmiy-nazariy taklif hamda tavsiyalar majmuasini shakllantirish.

Materiallar va usullar. Ushbu tadqiqotning uslubiy poydevorini tizimli yondashuv, qiyosiy-mantiqiy tahlil, tarixiy-falsafiy va sotsiologik metodlar majmuasi tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida Sharq mutafakkirlarining (Markaziy Osiyo renessansi namoyandalari, tasavvuf falsafasi vakillari)¹ tabiat, inson va jamiyat munosabatlariga, resurslarni asrashga oid ma'naviy-etik merosi hamda hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlar bandligini ta'minlash va ularning tadbirkorlik faolligini oshirishga qaratilgan huquqiy-institutsional mexanizmlar olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik usullar va materiallar manbasidan foydalanildi:

- Tarixiy-falsafiy va komparativistik tahlil: Sharq xalqlari qadriyatlari, milliy urf-odatlar va an'anaviy etika normalarida ekologik ma'naviyat elementlarining

¹ Tojiyeva M., Nazarov q. Ekologik etika va barqaror rivojlanish falsafasi. Ilmiy darslik. – Toshkent: Nosir, 2022. – 185 b.

shakllanish qonuniyatlari o'rganildi. Tarixiy konsepsiyalar zamonaviy "yashil iqtisodiyot" va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan qiyosiy ravishda tahlil qilindi.

- Normativ-huquqiy va institutsional tahlil: O'zbekiston Respublikasining xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, ularning tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga oid qonun hujjatlari, Prezident farmon va qarorlari, shuningdek, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda mahalliy hokimiyat organlarining tarkibiy bo'linmalari faoliyati normativ-huquqiy jihatdan tahlil qilindi.

- Empirik va statistik ma'lumotlar bazi: Tadqiqotning amaliy qismida respublikamiz hududlarida, xususan, ekologik inqiroz va suv resurslari tanqisligi sezilayotgan tumanlarda ayollar tadbirkorligining rivojlanish dinamikasi, bandlik darajasi va ularning ekologik loyihalardagi ishtirokiga oid statistik ma'lumotlar hamda joylarda (masalan, tuman oila va xotin-qizlar bo'limlari amaliyoti doirasida) to'plangan materiallardan umumlashtiruvchi manba sifatida foydalanildi.

Natijalar. O'tkazilgan kompleks tahlillar shuni ko'rsatadiki, Sharq xalqlarining ko'p asrlik ijtimoiy-madaniy hayotiga singib ketgan "Isrof qilmaslik", "Suvga tupurmaslik" (suvni muqaddas bilish) hamda "Yaxshilikdan bog' qoladi" kabi an'anaviy qadriyatlari shunchaki axloqiy o'gitlar bo'lmay, bugungi kunning global ekologik-etika tamoyillari va barqaror rivojlanish konsepti bilan konseptual jihatdan to'liq mos keladi [4]. Ushbu ma'naviy poydevor oila va jamiyatda ekologik tafakkurni shakllantirishda bosh mezon bo'lib xizmat qilgan.

Zamonaviy iqtisodiy jarayonlarni sotsio-ekologik jihatdan o'rganish natijasida aniqlandiki, bugungi kunda aynan xotin-qizlar tomonidan boshqarilayotgan kichik biznes subyektlari va oilaviy korxonalarda ekologik madaniyat hamda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ancha yuqori darajada namoyon bo'lmoqda [5]. Ayollar tadbirkorligi o'zining tabiatiga ko'ra, faqatgina sof foyda olishga emas, balki jamiyat uchun ijtimoiy va ekologik naf keltirishga — "manfaatdor tomonlar falsafasi"ga (stakeholder theory) ko'proq yo'naltirilgandir.

Ayniqsa, respublikamizning iqlim o'zgarishi va gidroresurslar tanqisligi keskinlashgan mintaqalarida ayollar korxonalari quyidagi yo'nalishlarda ekologik-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etmoqdalar:

1. **Suv resurslarini samarali boshqarish:** Qishloq xo'jaligi hududlarida xotin-qizlar rahbarligidagi agrofimlar va dehqon xo'jaliklari tomonidan suvni tejovchi tomchilatib hamda yomg'irlatib sug'orish texnologiyalarini joriy etilishi, an'anaviy sug'orishga nisbatan gidroresurslarni sarflashni 40-50% gacha qisqartirish imkonini bermoqda. Bu esa transchegaraviy suv muammolari sharoitida ichki resurslarni asrashning muhim mexanizmidir.

2. **Resurs tejamkorligi va qayta ishlash:** Chiqindilarni saralash, ikkilamchi xomashyodan ekologik toza mahsulotlar (ekosumkalar, milliy matolardan qayta ishlangan kiyim-kechaklar va qog'oz mahsulotlari) ishlab chiqarishda xotin-qizlar kichik biznesining ulushi barqaror o'sib bormoqda.

3. **Ekoturizm va "yashil" xizmatlar:** Hududlarning o'ziga xos tabiiy-geografik joylashuvidan kelib chiqib, ayollar tomonidan tashkil etilayotgan agroturizm va ekoturizm maskanlari ham mahalliy aholi bandligini ta'minlamoqda, ham mintaqaning ekologik muvozanatini saqlashga xizmat qilmoqda.

Tahlillar xulosa qilib shuni ko'rsatadiki, ekologik inqiroz pallasida xotin-qizlarning bandligini aynan ekologik yo'naltirilgan tadbirkorlik hisobiga ta'minlash jamiyatda ikki tomonlama samaradorlikka — iqtisodiy barqarorlik (kambag'allikni qisqartirish) va ma'naviy-ekologik xavfsizlikka (resurslarni kelajak avlodga asrash) olib keladi [6].

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar va ilmiy-falsafiy mushohadalar asosida quyidagi konseptual xulosalarga kelindi:

Birinchidan, Sharq xalqlari qadriyatlaridagi ekologik ma'naviyat elementlarini zamonaviy bosqichda qayta tiklash va ularni xotin-qizlar tadbirkorligi mexanizmlari bilan integratsiya qilish — global iqlim o'zgarishlari, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan transchegaraviy suv muammolarini ma'naviy-etik jihatdan yumshatishning eng samarali strategik omillaridan biridir. Tabiatni asrashga oid qadriyatlarning iqtisodiy faoliyat bilan sintezi "yashil biznes" madaniyatini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqadi.

Ikkinchidan, iqlim o'zgarishi va ekologik inqirozlar (suv tanqisligi, yerlarning sho'rlanishi) keskinlashgan hududlarda xotin-qizlar bandligini aynan ekologik yo'naltirilgan tadbirkorlik subyektlari orqali ta'minlash, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik xavfini kamaytiradi. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligiga erishishi oilalarda va mahallalarda transformatsion ekologik tafakkurning shakllanishini tezlashtiradi [7].

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda, ekologik muammolar mavjud hududlarda ayollar bandligining ma'naviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

- Huquqiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish: Ekologik inqiroz hududlarida xotin-qizlar tomonidan tashkil etiladigan va suvni tejovchi texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish hamda "yashil" xizmatlarga asoslangan tadbirkorlik subyektlari uchun maxsus qonunchilik imtiyozlari (subsidiyalar, maqsadli grantlar va soliq preferensiyalari) tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash;

- "Yashil" startap va inkubatsiya markazlarini tashkil etish: Joylarda, xususan, tuman oila va xotin-qizlar bo'limlari qoshida xotin-qizlarning ekologik biznes loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi va yo'naltiruvchi maxsus maslahat markazlarini tashkil etish;

- Ekologik-tadbirkorlik ta'lim tizimini yo'lga qo'yish: Xotin-qizlar uchun an'anaviy sharqona ekologik etika va zamonaviy "yashil iqtisodiyot" menejmenti uyg'unlashtirilgan qisqa muddatli innovatsion o'quv kurslarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish.

Xulosa qilib aytganda, an'anaviy ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy iqtisodiy-huquqiy vositalar bilan integratsiya qilish orqali xotin-qizlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash — jamiyatimizning barqaror va ekologik xavfsiz kelajagi poydevorini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-son Qonuni.
4. Askarov A. Sharq xalqlari etnomadaniyati va ekologik ma'naviyat tizimi. – Toshkent: Muharrir, 2019. – 210 b.
5. Tojiyeva M., Nazarov Q. Ekologik etika va barqaror rivojlanish falsafasi. Ilmiy darslik. – Toshkent: Nosir, 2022. – 185 b.
6. Raxmatullayev N. Mintaqada suv diplomatiyasi va transchegaraviy gidroresurslarni boshqarishning siyosiy-huquqiy mexanizmlari // Siyosat va huquq jurnali. – Toshkent, 2023. – №3. – B. 45-52.
7. Yuldashev X. Transchegaraviy suv masalalarining falsafiy-ma'naviy talqini va ekologik madaniyat // Falsafa va huquq jurnali. – Toshkent, 2021. – №1. – B. 78-84.